

TAJRIBADAGI SIGIRLARNING O'SISH VA RIVOJLANISH KO'RSATGICHLARINI O'RGANISH

Shermaxmatov O. O

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti talabasi*

Farxod Raxmatilloevich Sattorov

Ilmiy rahbar: v.b.dotsent (PhD)

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti*

Annotatsiyasi: *Tadqiqotlarda chet eldan keltirilgan sigirlar o'sish va rivojlanishni,
sut mahsuldorligini ishlab chiqarish tiplariga bog'liqligi aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *Golishtin, zot, sigir, mahsuldorlik, o'sish, rivojlanish tana tuzilishi,
tip.*


Kirish. Keyingi yillarda respublikamizning naslchilik bazasini mustahkamlash va yuqori mahsuldor podalar yaratish maqsadida, Yevropaning qoramolchiligi rivojlangan ko'plab mamlakatlardan naslli qoramollar keltirilmoqda. Bu qoramollar mahsuldorlik xususiyatlari bo'yicha yuqori irsiy salohiyatga ega.

Tadqiqot bajarilgan joyi Pstdarg'om tumanidagi "Sevar" chorvachilik xo'jaligida quyidagi tadqiqotlarga asosan olib borildi. Sigirlarni baholashda ularning tana tuzilishi xususiyatlari alohida o'rin tutadi chunki, sutdorlik tipi, sut yo'nalishi talablariga javob berishi bilan baholanadi.

Hayvonlarni baholashda dastlab uni tana tuzilishi hisobga olinadi, zot standarti talablariga javob berib, sut belgilari yaxshi rivojlangan sigirlar asosan sersut bo'ladi.

Dunyo olimlari Legoshin G.P. (2002), Proxorenko P., Amerxanov X. larning (2002) va M.E.Ashirovlarning (2017) ta'kidlashlaricha, sigirlarning maqbul tirik vaznini aniqlash u yoki bu zotni takomillashtirishda yuqori genetik salohiyatga ega bo'lgan yuqori mahsuldor podalarni shakllantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek podalarni takomillashtirishda jahon genofondiga xos bo'lgan zotlarni naslli buqalaridan samarali ravishda chatishtirish ishlarida foydalanishda muhim o'rin tutadi. Shu maqsadda biz o'z tadqiqotlarimizda turli faollik tiplariga mansub bo'lgan golshtin zotli sigirlarni sun'iy urug'lantirishdan oldin, sigirlar tuqqanidan keyin va laktatsiyaning 3-oyligida tirik vaznini aniqladik va olingan natijalarni quyidagi 1-jadvalda keltirdik.

1-jadval ma'lumotlarining tahlili shundan dalolat berganki, faollik tipi kesimida sigirlarning tirik vazni bir xil bo'lmagan.



1-jadval

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning tirik vazni (n=5)

Ko'rsatkichlar	Guruhlar					
	I		II		III	
	$X \pm S_x$	$C_{v, \%}$	$X \pm S_x$	$C_{v, \%}$	$X \pm S_x$	$C_{v, \%}$
Sun'iy urug'lantirishdan oldingi tirik vazn, kg	484,3 $\pm$ 3,1	6,6	473,1 $\pm$ 2,8	7,2	467,0 $\pm$ 4,9	5,1
Tuqqandan keyingi tirik vazn, kg	474,2 $\pm$ 4,1	6,1	460,2 $\pm$ 4,1	6,5	458,1 $\pm$ 5,4	7,9
Laktatsiyaning 3-oyligidagi tirik vazni, kg	503,6 $\pm$ 5,9	5,2	490,2 $\pm$ 5,9	6,7	480,9 $\pm$ 3,9	5,7

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki sun'iy urug'lantirishdan oldingi tirik vazn I guruh sigirlarda 484,3 kg ga teng bo'lib, o'z tengqurlari II va III tajriba guruhidagi sigirlardan 11,2 kg yoki 2,3 foiz va 17,3 kg yoki 3,6 foiz yuqori bo'lgan. ushbu farq tuqqandan keyingi tirik vazn bo'yicha va laktatsiyaning 3 oylik tirik vazni bo'yicha shunga mutanosib ravishda: 14,0 kg yoki 2,9 foiz va 16,1 kg yoki 3,4 foiz, 13,4 kg yoki 2,7 foiz va 22,7 kg yoki 4,5 foizga teng bo'lgan.

Shunday qilib tajriba guruhlaridagi sigirlarning tirik vazni bo'yicha faollik tiplari kesimida sezilarli darajada farq kuzatilmagan.

Ekstererni baholash - ko'z bilan chamalab, tana o'lchamlarini olish, indekslarni hisoblash va boshqa usullarda amalga oshiriladi. Bular ichida aniq usul tana qismlarini o'lchash orqali u yoki bu tana qismining rivojlanishi, indekslar orqali uning tana qismlarining bir-biriga nisbati natijasida tana tuzilishiga baho berish mumkin.

Sigirlarning ko'krak kengligi va chuqurligining yuqori bo'lishi ularda yurak va o'pkaning yaxshi rivojlanganligi, pirovard natija bunday sigirlarda qon tez aylanadi, modda almashinuvi yuqori bo'ladi, yelin to'yimli moddalar bilan o'z vaqtida ta'minlanishi natijasida ko'proq sut hosil bo'lishi kuzatiladi.

Yonbosh suyaklari va qo'ymich do'ngliklari oraliqining keng bo'lishi sigir yelinining yaxshi rivojlanganligidan darak berib, bunday sigirlar odatda sersut bo'ladi.

Barcha tajriba guruxdaridagi sigirlarning sutining tarkibidagi quruq modda, yog'sizlantirilgan sut qoldig'i va sut qandi buyicha deyarli bir xil kursatkichlarga va me'yor talablari darajasida bulgan.

Xulosa. Golshtin zotli o'ta faol tipga mansub sigirlar o'z tengdurlari yuqori va o'rta tipga mansub sigirlarga qaraganda yuqori sut maxsuldorligiga ega ekanligini ko'rsatdi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kaxarov A.K. Qoramollarning etologik kursatgichlari va uning maxsuldorlik bilan boglidligi. «Zooveterinariya» jurnali. 2009. №6. 26-29 b.

1. Авазов Д.С., Кахаров А.К. Мясная продуктивность некоторых молочных пород крупного рогатого скота и их помесей: Научн. Тр. /Московская медитсинская академия им. И.М.Сеченова. – Москва, 2005. с. 163-165

2. Амерханов Х.А., Коломов Ф.Г. Прошлое, настоящее и будущее специализированного мясного скотоводства. Ж. «Зоотехния», 2008, №1, с.21

3. Xushvaqtoy A.A. Har xil genotipli qora-ola zotli buqachalarning go'sht mahsuldorligi va biologik xususiyatlari. q.x.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. Avtoreferati. Toshkent. 2007. 21 b.

